

BUG‘DOY AGROTSENOZIDA KOLLEMBOLALARNING FASLLAR KESIMIDA TUPROQ QATLAMLARIDA TARQALISHI

Atoyeva Dilsora Odil qizi

Magistrant, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti

ANNOTATSIYA

Jizzax viloyati Forish tumani hududlari bug‘doy dalalari tuproq kollembolalarining tuproq qatlamlarida tarqalishi o‘rganildi. Kollembolalarning miqdori qatlamlar bo‘yicha o‘rganilganda ularning eng ko‘p uchraydigan tuproq qatlami tuproqning o‘rta (10-20 sm) qatlamida ularning miqdori maksimal darajada kuzatildi.

Kalit so‘zlar. Kollembola, tuproq, agrotsenoz, bug‘doy, fasl.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga bo‘lgan talabning ortishi agrotsenozlar hosildorligini oshirish va bioxavfsizligini ta‘minlashga bo‘lgan talabning ham oshishiga olib kelmoqda [1]. Biroq so‘nggi yillarda tabiiy va sun‘iy ekotizim tuproqlariga bo‘lgan bosimning keskinlashuvi tuproq unumdorligini oshirishda muhim o‘rin tutadigan mikrofauna vakillari xilma-xilligining kamayishiga sabab bo‘lmoqda [3]. Bu o‘rinda, agrotsenozlardagi kollembolalar faunasini aniqlash hamda ekologik-taksonomik tarkibini baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, agrotsenozlar tuproq qatlamlaridagi kollembolalar turlar tarkibini aniqlash katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [2].

Material va ish uslubi. Tadqiqot materiallari 2022-2023 yillar davomida “Chortoq tulporlari”, “Abdulla baraka nur”, “Ilonli tog‘lari”, “Allakor bobo” fermer xo‘jaliklari hududlari no‘xot agrotsenozlari tuproq qatlamlaridan yig‘ildi. Tuproq namunalari kollembolalarni ajratib olishda umumiy qabul qilingan “Berleze-Tulgren apparati” dan foydalanildi [4]. Keyinchalik ularning tur tarkibini aniqlash maqsadida doimiy preparatlar tayyorlandi. Tuproq namunalari daladan belgilangan nuqtalardan olinib, mashrut usulidan foydalaniladi [3].

Olingan natijalar tahlili. Jizzax viloyati Forish tumani “Chortoq tulporlari”, “Abdulla baraka nur”, “Ilonli tog‘lari”, “Allakor bobo” fermer xo‘jaliklari hududlarida joylashgan no‘xot va bug‘doy agrotsenozlari tuproq qatlamlarining 30 sm. gacha bo‘lgan qatlamlarida kollembolalar miqdorining fasllar bo‘yicha dinamikasi o‘rganildi.

Bug‘doy agrotsenozlarida kollembolalar qish faslida dekabr oyida uchala qatlamdan ya’ni 0 - 10 sm, 10 - 20 sm, 20 -30 sm chuqurliklarda 1 m^2 da o‘rtacha hisobda bug‘doy dalalarida 850 ekzemplyar uchrashi kuzatildi.

0 - 10 sm qatlamlarida o‘rtacha 1 m^2 da bug‘doy dalalarida dekabr oyida 90 ekzemplyar;

10-20 sm qatlamlarida 1 m^2 da o‘rtacha bug‘doy dalalarida dekabr oyida 240 ekzemplyar;

20 - 30 sm qatlamlarida 1 m^2 da o‘rtacha no‘xot dalalarida dekabr oyida 520 ekzemplyar uchrashi kuzatildi.

Bahor faslida ya’ni april oyida uchala qatlamdan ya’ni 0 - 10 sm, 10 - 20 sm, 20 -30 sm chuqurliklarda 1 m^2 da o‘rtacha hisobda bug‘doy dalalarida 1700 ekzemplyar uchrashi kuzatildi.

0 - 10 sm qatlamlarida o‘rtacha 1 m^2 da bug‘doy dalalarida april oyida 800 ekzemplyar;

10-20 sm qatlamlarida 1 m^2 da o‘rtacha no‘xot dalalarida april oyida 520 ekzemplyar;

20 - 30 sm qatlamlarida 1 m^2 da o‘rtacha no‘xot dalalarida april oyida 380 ekzemplyar uchrashi kuzatildi.

Yoz fasli iyul oyi bug‘doy agrotsenozi tuproqlarining 0 - 30 sm qatlamida 1 m^2 da o‘rtacha bug‘doy dalalarida 1500 ekzemplyar, 0 - 10 sm qatlamlarida o‘rtacha 1 m^2 da no‘xot dalalarida iyul oyida 800 ekzemplyar, uchrashi aniqlandi.

10-20 sm qatlamlarida 1 m^2 da o‘rtacha bug‘doy dalalarida 600 ekzemplyar; uchrashi kuzatildi.

20 - 30 sm qatlamlarida 1 m^2 da o‘rtacha bug‘doy dalalarida 200 ekzemplyar; uchrashi kuzatildi.

Kuz fasli oktyabr oyi bug‘doy agrotsenozi tuproqlarining 0 - 30 sm qatlamida 1 m^2 da o‘rtacha bug‘doy dalalarida 1400 ekzemplyar, 0 - 10 sm qatlamlarida o‘rtacha 1 m^2 da bug‘doy dalalarida iyul oyida 700 ekzemplyar, uchrashi aniqlandi.


10-20 sm qatlamlarida 1 m^2 da o‘rtacha bug‘doy dalalarida 400 ekzemplyar; uchrashi kuzatildi.

20 - 30 sm qatlamlarida 1 m^2 da o‘rtacha bug‘doy dalalarida 300 ekzemplyar; uchrashi kuzatildi (1-jadval va 1-rasmga qarang).

1-jadval

Jizzax viloyati bug‘doy agrotsenozlari tuproq qatlamlarida fasllarda kollembolalar soni

| Tuproq qatlamlari | Bug‘doy agrotsenozi | | | |
|-------------------|---------------------|-------|------|---------|
| | Dekabr | April | Iyul | Oktyabr |
| 0-10 sm | 90 | 800 | 800 | 700 |
| 10-20 sm | 240 | 520 | 600 | 400 |
| 20-30 sm | 520 | 380 | 200 | 300 |
| Jami | 850 | 1700 | 1500 | 1400 |



1-rasm Jizzax viloyati bug‘doy agrotsenozi tuproqlari kollembolalarining mavsumiy dinamikasi

XULOSA

Kollembolalarning miqdori fasllar bo‘yicha o‘rganilganda ularning mavsumiy dinamikasini yuqori darajasi bahor faslida kuzatildi. Tuproq qatlamlari bo‘yicha o‘rganilganda tuproqning o‘rta (10-20 sm) qatlamida kollembolalarning miqdori maksimal darajada kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Бабенко А.Б., Кузнецова Н.А., Потапов М.П., Стебаева С.К., Ханисламова Г.Х., Чернова Н.М. Определитель коллембол фауны СССР. -Москва: Наука, 1988. – 214 с.
2. Бабенко А.Б., Потапов М.П., Стебаева С.К., Чернова Н. Определитель коллембол фауны России и сопредельных стран. Семейство Hurogastruridae. - Москва: Наука, 1994. – 336 с.
3. Потапов М.Б., Кузнецова Н.А. Методы исследования сообществ микроартропод. -Москва: КМК, 2011. – 84 с.
4. Hopkin S.P. Biology of springtails: (Insecta: Collembola). Oxford Science Publications - Oxford. 1997. – 330 p.